

BADIIY ADABIYOTDA RAMZIY OBRAZLARNING O'ZIGA XOS TALQINI

Umriniso Rahimova

ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotda, xususan, Sharq mumtoz adabiyotida ramziy obrazlarning o'ziga xos talqini, ularning nazariy va amaliy asoslari tahlil etiladi. Ramz, simvol va majoz tushunchalarining adabiyotshunoslik, falsafa, lingvokulturologiya va tasavvufdagi o'rni hamda ularning o'zaro farqli jihatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqotda ramziy obrazlarning xalq tafakkuri, diniy-tasavvufiy qarashlar va badiiy mushohada bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mumtoz adabiyotda keng uchraydigan Simurg' obrazi misolida ramziylikning ko'p qatlamli ma'no imkoniyatlari ochib berilgan. Maqola ramziy tafakkurning badiiy matn mazmunini boyitishdagi ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ramz, simvol, majoz, badiiy obraz, tasavvuf, mumtoz adabiyot, Simurg'.

Аннотация: В данной статье анализируется своеобразная интерпретация символических образов в художественной литературе, в частности в восточной классической литературе, а также их теоретические и практические основы. На основе научных источников раскрывается место понятий символ, знак и метафора в литературоведении, философии, лингвокультурологии и суфизме, а также их отличительные особенности. В исследовании показана неразрывная связь символических образов с народным мышлением, религиозно-суфийскими воззрениями и художественным осмыслением. Кроме того, на примере широко распространённого в классической литературе образа Симурга раскрываются многоуровневые смысловые возможности символизма. Статья направлена на обоснование значения символического мышления в обогащении содержания художественного текста.

Ключевые слова: символ, знак, метафора, художественный образ, суфизм, классическая литература, Симуург.

Abstract: This article examines the specific interpretation of symbolic images in literary works, particularly in Eastern classical literature, as well as their theoretical and practical foundations. Based on scholarly sources, the role of the concepts of symbol, sign, and metaphor in literary studies, philosophy, linguoculturology, and Sufism, along with their distinctive features, is analyzed. The study demonstrates the close connection between symbolic images and folk mentality, religious-Sufi views, and artistic contemplation. Furthermore, using the example of the Simurgh image, which is widely represented in classical literature, the article reveals the multilayered semantic potential of symbolism. The research aims to substantiate the importance of symbolic thinking in enriching the meaning and depth of literary texts.

Keywords: symbol, sign, metaphor, artistic image, Sufism, classical literature, Simurgh.

Kirish

Sharq adabiyotida obrazlarning ramziylik va majoziylik tushunchalari mumtoz matnning birlamchi jihatlaridan biri bo‘lib, ham shaklan, ham mazmunan uyg‘unlikni hosil qilishda va badiiy tahlilni amalga oshirishda yetakchi unsure hisoblanadi. Olamdagi mavjudotlarni o‘z holicha emas, o‘zga qarashla ifodalab, ma’no anglatish qadimdan bugungi kunga qadar meros deyishimiz mumkin. Xalqimiz ramz–simvol, majoz–allegoriya vositasida turmush tarzi, mafkurasi hamda boshqa qardosh millatlar o‘rtasidagi mushtarak orzu-niyatlarini ifodalaydi. Shu bois bu istilohlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish muhim sanalmoqda. Ushbu atamalar so‘z san’ati bilan bog‘liq bo‘libgina qolmay, boshqa san’at turlariga ham taalluqlidir.

Asosiy qism

Ramz haqida O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha ta’rif keltirilib, majozdan tafovutlanuvchi jihatlari aytib o‘tilgan: “Ramz (arabcha –ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda)– voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik

shakllaridan. U majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog‘liq bo‘ladi va ko‘p ma‘noliligi bilan ajralib turadi. Barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan, asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud. Masalan, sher–mardlik, tulki–makkorlik, bo‘ri–ochko‘zlik, gul–go‘zallik, ma‘shuqa, bulbul–oshiq, sariq rang–mahzunlik, qora rang–motam ramzlari. Ijodkorlar an‘anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (masalan, bulut, buloq, chaqmoqva b.)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma‘noga ega bo‘ladi”¹. Shu bilan bir qatorda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ramz–belgi, imo, ishora; laqab, taxallus. Birorg‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora; qochiriq yoki ishora bilan aytilgan gap, imo-ishora, shama deya izohlangan². “Adabiyotshunoslik lug‘atida esa ramz–simvol, ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma‘no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, kontekst doirasida ham o‘z ma‘nosida, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi. Uning ma‘nosi kontekst ma‘nosida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi. Masalan, Cho‘lpon she‘riyatidagi “yulduz”, “bulut”, “bahor”, “qish” obrazlari ramzning yorqin misoli bo‘la oladi³.

Ramzga uyg‘un shaklda xorijiy adabiyotlarda simvol tushunchasi falsafa, psixologiyada ham keng qo‘llanadi. Simvol keng ma‘noda (grekcha sumbol so‘zidan olingan bo‘lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a‘zolarining bir-birini tanib olish uchun qo‘llagan shartli belgi tushunchasini anglatadi. Poetik simvol tashqi ko‘rinish, belgi bo‘lib, undagi aniqlik, ko‘rgazmalilik, ayni vaqtda badiiy shartlilik vositasida bunga nisbatan kengroq ma‘no ifoda etiladi. Bu simvol–obrazga taalluqlidir. Simvallashtirish nisbatan turli sohalarda uchraydi. Farq shundaki, ayrim hollarda (poetic simvollarda) insonning mavjud psixik xususiyatlariga suyanan

¹Ўзбекистон миллий энциклопедияси.—Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедия” давлат илмий нашриёти,2006.—Б.59

²Ўзбек тилининг изохли луғати 3-том.—Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедия” давлат илмий нашриёти,2006.—Б.346

³Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.—Т.:Akademnashr, 2013.—Б.245

holda yuzaga keladi, boshqalarda esa (simvol-belgida) u sun'iy bo'ladi. Simvol-belgi ma'nosiga xos bo'lgan sifatlarni, xususiyatlarni o'zida to'liq mujassamlashtirmaydi. Gegelning fikricha, belgidagi mohiyat va ifoda predmeti o'rtasidagi bog'lanish, aloqa ularning tasodifiy birlashishiga asoslanadi, xolos. U belgidagi mohiyat va ifoda o'rtasida ichki bog'lanishining bo'lmasligini matematik, fizik, ximik simvollarda uchratishimiz mumkin. Xususan, simvol-obraz va simvol-belgining o'ziga xos xususiyati, farqlari N. Kostomarov tomonidan ancha to'g'ri hal qilingan. Kostomarov simvallashtirishning turli ko'rinishlarini bir-biridan farqlashni inson psixologik xususiyati bilan bog'liq holda olib qaraydi ⁴. Inglizlarning "Merriam Webster" nomli elektron izohli lug'atida simvol biror bilim sohasi yoki e'tiqod tizimidagi tamoyil va tamoyillar majmuyi; hukumatning xalqaro munosabatlardagi rasmiy siyosati va asosiy bayonoti; harbiy tamoyil yoki strategiyalar majmuyi; o'rgatiladigan narsa, ta'limot; arxaik (qadimgi) shaklida ta'lim, o'qitish istilohlarida ifoda etilgan. So'zning kelib chiqishini so'nggi Lotin tilidagi symbolum ("belgi, ishora, ramz"), bu esa yunoncha symbolon so'zidan olingan. Uning asl yunoncha ma'nosi shaxsni aniqlash uchun ikkiga bo'lingan va boshqa yarmi bilan solishtirib tasdiqlanadigan belgi, nishoncha deya izohlangan ⁵.

Lingvokulturologik jihatdan ramz bu tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi o'laroq talqin qilinib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi. Insonlar o'rtasidagi aloqa "ramz" (simvol) so'zining o'zida aks etgan. Yunoncha "simvol" so'zi dastlab sopol yoki chinni parchasini ifodalab, do'stona munosabatlar belgisi bo'lib xizmat qilgan. Mehmonni kuzatayotgan mezbon mehmonga sopol yoki chinni parchasining bir bo'lagini bergan, ikkinchi bo'lagini esa o'zida olib qolgan. Bu mehmon qachondir yana uyga kelganida, uni ana shu sopol parchasidan tanib olishgan. Demak, qadimgi davrlarda "simvol" so'zi "shaxs guvohnomasi" ma'nosida qo'llangan. Xususan, ajdodlarimiz ham ibtidoiy davr deb baho

⁴ Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 23

⁵ <https://share.google/o8Kp6id0fsspxlXaL>

beriladigan paytlarda bizga qaraganda yuz karra shoirroq edilar. Ular albatta, poeziyani tushunmasdilar, biroq bugungi til bilan aytganda, o'sha minglab yillar avval ularning tafakkur tarzi "poetik mushohada" tarzida edi: ular hayotlari va tabiatdagi har bir narsani tasavvur qilgan tushunchalarning ramzi sifatida qabul qiladilar. U paytlar Osmon, suv, ko'kat, quyosh, oy, yorug'lik va zulmat– Tangrilar edi; quyosh o'rmini tun egallarkan, ezgulik va yovuzlik kurashi ketyapti deb o'ylashardi. Hayvonlar ham tangrilar edi, ularning ichida ham yovuz va ezgu niyatli bor edi. Ezgulik tangrilari osmonda, yer yuzida yorug'lik bilan birga yashashadi, yovuzlik tangrilari yer ostida, zulmat bilan birga yashashadi deb tasavvur etganlar ⁶.

Turk tadqiqotchilaridan biri Galip Atasağun "Sembol ve sembolizm" (Simvol va simvolizm) nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bayon etgan bo'lib, uning psixik, diniy jihatdan ma'nolariga to'xtalgan. Ya'ni olimning qarashlariga ko'ra simvol bu o'zidan boshqa voqealikka e'tibor qaratuvchi, biror narsaning o'rniga ko'chuvchi yoki uni tasvir etuvchi harakat yoki insonlar tomonidan yaratilgan har qanday bir ishoratdir. Shuningdek, simvol tasvir etib bo'lmaydigan narsalarni aniqlashtirgan holda ma'lum qilib ko'rsatadigan belgi hisoblanar ekan. Inson tafakkurida ko'rinmaydigan ba'zi narsalarni o'z munosabatiga mutanosib ravishda zohir qilib tasvirlaydigan narsalarni ham simvollar deyishimiz mumkin. Ushbu umumiy ta'riflardan tashqari, "ramz" atamasi xristianlikda diniy e'tiqod haqiqatlarini tasvirlash jarayonida rasmiy va obro'li ifoda sifatida ishlatilgan. Xususan, u nasroniylikda cho'qintirish paytida dinni qabul qildiruvchi kishi tomonidan o'qiladigan e'tiqod yoki iymon iqrori uchun ajratilgan. Ushbu shaklda "Havoriylar e'tiqodi" deb nomlanuvchi iymon iqrori "Havoriylar ramzi" deb ham ataladi ⁷.

Tasavvuf ahlining yetuk olimlaridan biri Aziziddin Nasafiy "Komil inson" kitobida ramziy tafakkur qilishning tasavvufda ham keng tatbiq etilishini misollar orqali tasdiqlagan. Ya'ni u "ba'zi soliklar aytmishlarkim, biz sayqaliylar hunarini

⁶ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B. 139

⁷ https://dergipark.org.tr/tr/pub/neuifd/issue/19713/210657#article_cite

o'rganamiz. Ko'ngil ko'zgusini mujohada egovi va zikr yog'i yordamida sayqal berish yo'li bilan pok va musaffo eturmiz. Ko'ngul ko'zgusi pokiza va musaffo bo'lganidan so'ng g'ayb va shahodat olamida nimaiki ilm bo'lsa, uning aksi bizning ko'nglimizda jilo topar",— deydi ⁸. Ushbu o'rinda tasavvuf adabiyotining tub mohiyatini ochib berishda ramz va ramziylik tushunchalari birlamchi vosita bo'lganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shu jumladan badiiy obrazlarning ramziyligi asosida diniy-tasavvufiy istilohlarni tavsiflash singari jihatlarni I. Haqqul tomonidan berilgan quyidagi fikrlar yordamida isbot etish joizdir: "Albatta, ta'vil yo'li bilan faqat Qur'ondan yoki boshqa dinlardan o'zlashtirilgan ramziy, majoziy obrazlar bilangina ko'pchilikning ko'nglini ishg'ol etish ancha qiyin edi. Shuning uchun tasavvuf asoschilari, ulkan vakillari o'z e'tiborlarini ko'proq ishqiy obrazlar olami va tasvir vositalariga qaratgan edilar. Bu ikki jihatdan juda qulay edi: birinchidan, bu – keng xalq ommasi bilan fikriy-hissiy va ruhiy aloqa bog'lashning eng ishonchli va eng samimiy yo'li edi. Ikkinchidan, asrlar mobaynida qo'llanib, sayqallanib kelgan va o'quvchilarga ma'qul hamda manzur bo'lib qolgan she'riy obrazlarning ma'no qatlamlarini ko'paytirish, ya'ni ularga qo'shimcha "fikriy nagruzka" yuklash unchalik qiyin emasdi. Oqibatda, N.I.Prigarina aytmoqchi, bir badiiy asarda go'yo ikki mustaqil tekst paydo bo'lganki, ulardan biri – tasvir tamoyiliga mansub she'riy tekst bo'lsa, ikkinchisi mazmun talqini zaminidan hosil bo'lgan tasavvufiy matn edi⁹. Ahmadqul Qurbonbekov ham ramzni tasavvufiy nuqtayi nazardan ma'no va maqsadni ishora, imo vositasida ifodalash; bir xil moslik va o'xshashlikka rioya qilingan so'z va ibora yoki hatto moslik bo'lmagan yot ma'noni ifodalash deya izoh keltirib, uning majozdan farq qilishini aytib o'tadi. Unga ko'ra qadimgilar majozni shar'iy, urfiy, aqliy va lug'aviyga taqsimlashgan. Shar'iyning haqiqati mazhab tilidagi so'zni maxsus ma'noda qo'llashdan iborat... urfiyning haqiqati shuki, so'z aslida boshqa ma'noga ega bo'lgan bo'lishi kerak edi, lekin xalq tilida va umumodaticha yangi ma'noda ishlatiladi... aqliy majoz bilan dalillashdir va bu adabiyotda ko'plab uchraydi...lug'aviy majoz shuki,

⁸ Насафий А. Комил инсон китоби. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2021. – Б. 77

⁹ Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти. Филол.фан.док. дис... – Тошкент, 1993. – Б.289

adabiy tilda bir soʻz oʻz asl maʼnosida ishlatilmaydi. Masalan, nargis istiora sifatida koʻzni ifodalaydi... Demak, majoz sanʼati soʻzni oʻz maʼnosida emas koʻchma maʼnosida qoʻllash va ramz ham xuddi shu usullardan biriga mansub. Farqi shundaki, majoz oʻta keng qamrovli boʻlib, u soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllaydi ¹⁰.

Mumtoz badiiy adabiyotda ham ramziy obrazlar keng tarqalgan boʻlib, shulardan biri Simurgʻdir. “Mantiq ut-tayr”da qushlarning podshosi, ilohiy ideal va Allohning ramziy timsolini ifodalasa, “Bulbulnoma” nomli kichik masnaviy-dostonida nomi bor-u oʻzi yoʻq qush maʼnosini ifodalab keladi. Bu obrazning bundan tashqari folklordagi qushlar podshosi, bosh qahramonga homiy va afsonaviy qush kabi maʼnolari bor. Podshoh obrazini Navoiy adolat ramzi maʼnosida qoʻllaganini bilamiz, lekin u “Lison ut-tayr”dagi hikoyalarda Allohning timsoli maʼnosida ramzlashtirilgan. Dostondagi Chin (Xitoy) yurti maʼrifat va sanʼatkorlik diyori sifatida talqin etilgan. (Buni Navoiy “Lison ut-tayr”da Simurgʻning Chin shahri ustidan uchib oʻtishi, parvoz payti uning bitta pati tushib qolishi va bu patdan ulgi olgan musavvir Moniy monaviylik sanʼatiga asos solishi lavhasida yana bir bor taʼkidlaydi¹¹ .

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ramziy obrazlar badiiy adabiyotning eng muhim estetik va semantik unsurlaridan biri boʻlib, ular orqali ijodkor oʻz fikrini bevosita emas, balki koʻp qatlamli maʼno va ishoralar vositasida ifodalaydi. Sharq mumtoz adabiyotida ramziylik nafaqat badiiy uslub, balki tafakkur tarzi sifatida shakllangan boʻlib, u diniy, falsafiy va tasavvufiy qarashlar bilan uzviy bogʻliqdir. Ramz va majoz oʻrtasidagi farq, simvolning obraz va belgi sifatidagi talqini badiiy matnni chuqur anglashda muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa, tasavvuf adabiyotida ramziy obrazlar ilohiy haqiqatni anglash va uni badiiy ifodalashning eng qulay vositasi hisoblanadi. Simurgʻ, podshoh, ishq, yor, safar kabi obrazlar orqali insonning komillikka intilishi, Haqqa yetishish yoʻli ramziy shaklda tasvirlanadi. Demak, ramziy obrazlarni tadqiq

¹⁰ Комилов Н., Куронбеков А., Имомназаров М., Назаров Б., Рихсиева Г., Қаландаров М. Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. – Тошкент, 2010. – Б.54

¹¹ Mamadaliyeva Z. Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ramziy va majoziy obrazlar sistemasi: filol.fan.nomz.dis. – Toshkent, 2025. – B.30, 129

etish nafaqat adabiy matn mazmunini kengroq ochib berishga, balki milliy tafakkur, madaniyat va estetik qarashlarning tarixiy taraqqiyotini anglashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти. Филол.фан.док. дис... – Тошкент, 1993
2. Комилов Н.,Куронбеков А.,Имомназаров М., Назаров Б.,Рихсиева Г.,Қаландаров М. Бадиий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари.–Тошкент, 2010
3. Mamadaliyeva Z. Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ramziy va majoziy obrazlar sistemasi:filol.fan.nomz.dis.–Toshkent,2025.–B.30,129
4. Насафий А. Комил инсон китоби. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2021
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.– T.:Akademnashr, 2013
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.—Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедия” давлат илмий нашриёти,2006
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3-том.—Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедия” давлат илмий нашриёти,2006
9. Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978

Foydalanilgan saytlar:

1. <https://share.google/o8Kp6id0fsspxlXaL>
2. https://dergipark.org.tr/tr/pub/neuifd/issue/19713/210657#article_cite